

2-dars. Takrorlash. 1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar



1. Raqamlar yozilgan uchta kartochkalar to'plami berilgan. Bitta to'plamdagi kartochkalardan foydalanib, turli **uch xonali** sonlar tuzing. Har bir to'plamdan nechta turli son hosil bo'ldi? Har bir sondagi yuzliklar, o'nliklar va birliklarni ayting.



2. Amallarni bajaring. Ifodalarning qiymatlariga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va Toshkentning yana bir qadimiy nomini bilib oling.

B $152 + 227$

I $208 + 192$

N $277 + 277$

E $357 - 123$

K $908 - 152$

T $600 - 327$

379 400 554 756 234 554 273



3. Hisoblamasdan taqqoslang.

$267 + 245$ ☐ $267 + 275$

$567 - 389$ ☐ $680 - 389$

$438 + 134$ ☐ $348 + 134$

$700 - 167$ ☐ $700 - 340$



4. Rasm bo'yicha masala tuzing va uni yeching.



Teleminora

375 m, 267 m baland



Milliy bank binosi

? m



Mustaqillik monumenti

? m, 48 m past



5. Toshkentning O'zbekiston poytaxti sifatidagi tug'ilgan kunini aniqlang. Birinchi tenglamaning ildizi **sanani**, ikkinchi tenglamaning ildizi esa **oy nomerini** bildiradi.

$$x + (278 + 366) = 661$$


$$(180 - 63) - y = 109$$



6. Ushbu favvoralardan qaysilari **ko'pburchak** shakliga ega?




7. "Mustaqillik" maydonidagi favvora hovuzi **to'g'ri to'rtburchak** shaklida. Uning bo'yi 114 m, eni esa bo'yidan 64 m qisqa. Favvora hovuzining perimetri bo'ylab diodli tasma tortish kerak. Buning uchun necha metr tasma kerak bo'ladi?



8. Toshkent metrosida 43 ta bekat bo'lib, **bu** Barselona metro bekatlariga nisbatan 144 taga, Shanxay metro bekatlariga nisbatan esa 370 taga kam. Barselona metro bekatlari Shanxay metro bekatlariga nisbatan nechta kam?



9. Sxemadagi doiralar ichiga **1 dan 7 gacha** bo'lgan sonlar yozildi. Yozilgandan so'ng kesma bilan tutashtirilgan har bir doiralar juftligi ichida qo'shni sonlar yo'qligi ma'lum bo'ldi. Har bir rangli doira ichiga qanday son yozilishi kerak?



10. Toshkent shahri bo'ylab ekskursiyaga 32 nafar o'quvchi va 8 nafar ota-ona bordi. O'quvchilar soni ota-onalar sonidan necha marta ko'p? Ekskursiyaga jami necha kishi borgan?

11. Dastlab **qavs ichidagi ifodalarni** hisoblang, keyin tenglamalarni yeching.

$$(80 + 32) + x = 467$$

$$(398 + 83) - y = 220$$

